

TARIX DARSALARIDA O`QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O`RGATISH

Bektemirov Sirojiddin Rustamovich
Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi
11-umumiy o`rta ta`lim maktabi direktori

Maqolada dars samaradorligini ta`minlashda muhim bo`lgan omillar haqidagi muayyan fikr-mulohazalar umumlashtirilib, tarix darslarida o`quvchi faolligini oshirish masalalari ko`rib chiqilgan.

Tayanch so`z va tushunchalar: faollashtirish, metodika, tarix, tahlil, o`qituvchi-o`quvchi, ta`lim shakllari va usullari.

In the article is described attempts of most famous opinions and theoretical ideas of leading scientists, competent educators as well personal experience of the author for the issues of raising effectiveness of teaching history.

Keywords: activation, methodology, history, analysis, teacher-and-pupil, forms and methods of teaching.

Mustaqillik atalmish tarixiy ne`mat xalqimizning tarixiy an`ana va ma`naviy boyliklarini qayta tiklovchi, uni yangi mazmun bilan boyituvchi muhim omil bo`ldi. O`z navbatida ta`lim tizimi mazkur omil doirasida o`ziga xos o`rin egallaydi. Ta`lim jarayonida esa tarix fanini o`qitish, unda milliy asosga tayanish, xalqimizning ma`rifatparvarlik, bag`rikenglik, mehmondo`stlik kabi an`analari, andishalilik, iymon-insof, mehr-oqibat, or-nomus kabi fazilatlarini chuqur o`rganish va ularni yoshlar qalbiga singdirish asosiy vazifa sifatida belgilab berilgan. Vatanimiz tarixini haqqoniy, xolisona va chuqur o`rganib, uning mohiyatini anglash o`quvchilarga ajdodlarning tarixiy an`analariiga oid manbalari, ularning tarixan tarkib topganligini tushunib olishlariga yaqindan ko`mak beradi. Shu o`rinda mamlakatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Milliy ma`naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Afsus, bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda” », deb aytgan fikrining nechog`lik dolzarbliyi ayon bo`ladi. Ta`lim tizimi oldida turgani kabi tarix darsiga qo`yiladigan zamonaviy talablarning oshishi, dars turlarining rang-barangligi, tarixiy manbalarga e`tiborning kuchayishi, zamonaviy pedagogik





hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining kundalik ehtiyojga aylanishi bugungi ta'limning asl manzarasidir. Qolaversa, ta'lim samaradorligiga bo'lgan e'tiborning zaruratga aylanishi jarayonida O'zbekiston tarixini chuqur o'r ganish, yoshlarni o'tmishimizning boy madaniy va ma'naviy merosi, jahon ilmiy tafakkuri va madaniyatiga qo'shgan hissasi bilan tanishtirish, madaniyatimizning benazir allomalari nomlarini hurmat bilan tilga olish, ular bilan faxrlanish, milliy iftixon ruhini singdirishga yordam beradi. SHu bois, davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligidan uchun g'oyat muhim va dolzARB masalaga aylandi. Mazkur muhim va dolzARB masalaning samarali echimini topish uchun yosh avlodning tarixiy ongini shakllantirish kabi vazifa kun tartibidan joy olishi zarur. Buning uchun, nazarmizda, eng avvalo tarix darsi bilan bog'liq bo'lgan o'quv jarayonida ijodkorlik muhitini vujudga keltirish lozim. O'quvchi tarixiy hodisa-voqealar, tarixiy sahna-manzaralarini chuqur anglashi uchun unda ijodkorlik ruhini uyg'otish yo'llarini izlash kerak. Aks holda mavhum tasavvur bilan yoki yodlattirish usuli orqali o'rgatishga o'xshagan metodlar zamon talabiga mutlaqo javob bermaydi. Yana bir muhim omil, o'quvchilar faoliyatini muayyan tartib asosida tashkil etish, ya'ni oldingi darslarda o'tilgan mavzularni keyingi darslar mazmuni bilan muntazam tarzda iloji boricha uzviyligini izlab topish zarur. Albatta, har bir pedagog uchun muhimroq bo'lgan yana bir omil – tarix darslarida o'quvchilar jamoasi orasida o'zaro do'stona muhitni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkorlik ruhini uyg'otish deganda nima nazarda tutiladi? Bunda tarix darsida qo'llaniladigan ijodiy topshiriqlar orasida tarixning ma'lum bir mavzularida ijodiy ishlarni yozish muhim o'rin egallaydi. Ijodiy ish yozdirish orqali bir vaqtning o'zida o'quvchilarda yozma nutqni rivojlantirish, tarixiy sanalar, voqealar, shaxslar va tarixiy joylarni tasavvur qilib, uni yozma ifoda etish ijodiy hamda tarixiy tafakkur shakllantiriladi. Ijodiy yozma ishlar uchun tanlanadigan mavzular ham albatta ma'lum talablardan kelib chiqishi lozim. Jumladan, misol tariqasida quyidagicha mavzularni tanlash maqsadga muvofiq:

1. «Men Mapkaziy Osiyodagi qadimiy shaharlar haqida nimalarni bilaman? (masalan, Maroqand, Kat, Binkat, Marg'ilon). Bunday mavzuni yoritishda, tabiiyki, o'quvchi qadimgi shaharlarga xayolan geografik tashrif buyurishi, shahardagi boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, qurilish va shaharsozlik an'analari, u erda



yashagan aholining turmush tarzi, urf-odatlari, soliqlar haqida ma'lumotlarni keltirishi kerak. Natijada, u bir vaqtning o'zida boshqa fanlardan olgan bilimlarini ham qayta tiklash, esga olish, o'zaro bog'lash amallarini ishga soladi. SHu mazmunda tarix darslari doirasida ijodiy yozma ishlar uchun mavzular rang-barang bo'lishi o'quvchining qiziqishini oshiradi, misol uchun, «Dunyoning etti mo‘jizasiga sayohat», «X-XII asrlardagi mutafakkir bobolarimiz ijodidan», «Ulug‘bek rasadxonasi haqida hikoya», «Ajodolarimizning qurilish va shaharsozlik tajribalari haqida», «Qadimgi turklar yashagan hududlarga sayohat», «Manbalar tilga kirganda». Bu mavzularni yoritishda o'quvchi albatta tarixning o'sha davrini tasavvur qilib, o'sha davr ruhini sezib, ma'lum darajada o'zini o'sha davr mulozimi sifatida ko'rsatishi lozim bo'ladi. YA'ni hududlar geografiyasi, o'sha zamon va makonning o'ziga xos an'analari, davlat tuzumi, oilaviy va maishiy turmush tarzi, boshqa davlatlar bilan munosabatlari, iqtisodiy taraqqiyoti, urug'-qabilachilik udumlari va h.k. yoritib berilishi kerak. Tarix darslarida o'quvchilar faolligini oshirish maqsadida o'qituvchi albatta yana bir jihat – sinfdagi muhitni to'g'ri baholashni inobatga olishi kerak. Aynan shu o'rinda dars mazmunidan kelib chiqib muammoli vaziyatni yuzaga keltirish maqsadga muvofiqdir. Ta'kidlash joizki, muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko'p shakllantirish o'qituvchiga bog'liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, u o'quvchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o'quvchilarni izlanish, fikrlashga o'rgatadi. Muammoli vaziyatni yaratganda o'qituvchi o'quvchilar o'z diqqatlarini nimalarga qaratishlari kerakligini aytishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, «Afinada demokratiya» (6-sinf) mavzusida muammoli vaziyatni «Nima uchun Drakon qonunlari «qon bilan yozilgan qonunlar» deb yuritilgan?», «Bugungi demokratiyani Qadimgi Afina demokratiyasidan farqli tomonlari nimada?», degan savollar bilan muammoli vaziyat yaratish mumkin. YOKi «CHor Rossiyasining Xiva xonligini bosib olishi» (9-sinf, O'zbekiston tarixi) mavzusida o'quvchilar diqqatini ikki muammoga qaratish zarur. Buning uchun o'qituvchi:

1. «Xiva xonligining bo'ysundirilishi Rossiyaga qanday manfaat keltirar edi?» degan savolni qo'yib muammoli vaziyatni yaratadi va o'quvchilarning fikrlarini eshitadi. Barcha fikrlarni eshitgach, savolga yakuniy xulosa e'lon qilinadi.



2. Turkmanlarning qo‘zg‘olonini tahlil qiling. Nima uchun qo‘zg‘olon engildi? Bu savol bilan o‘qituvchi ikkinchi muammoli vaziyatni vujudga keltiradi. O‘quvchilar echim jarayonida o‘qituvchi bilan birga harakat qilib, muammo yuzasidan fikr-mulohazalarini bayon etib, muammoning echimiga o‘z hissalarini qo‘shadilar. Tarix darslarida ijodkorlik ruhini uyg‘otishda xarita bilan ishlash ham yaxshi samara beradi. Buning uchun xarita bilan ishlash, xarita orqali u yoki bu voqealar rivojini kuzatishni o‘rgatish shogirdlar qalbida tarixiy hodisalarga nisbatan sinchkovlik tuyg‘usini uyg‘otadi. Quyida xarita orqali ijodiy ishni tashkil qilish uchun topshiriqlardan namunalar keltiriladi.

Qadimgi SHarqda joylashgan muzey shaharlarning xaritasini ishlash.

1. «Afsonalar va arxeologiya» mavzusida xarita ishlash. (Unda Qadimgi yunon afsonalarida tilga olingan shaharlarning hozirgi davlatlar hududidagi holati tasvirlanishi kerak.)

2. XV asrda Vizantiyani Samarqand bilan bog‘laydigan savdo yo‘li xaritasini ishlash.

3. Jaloliddin Manguberdi zabit etgan qal'a va shaharlarning xaritasini ishlash.

4. XX asr boshida O‘rta Osiyoda faoliyat olib borgan jadid maktablarining xaritasini ishlash. Ushbu jarayonda o‘qituvchining asosiy vazifasi nimadan iborat bo‘ladi? Avvalo, o‘quvchilar mustaqil holda xarita ishlaganda uni turli rasmlar, illyustratsiya va izohlar bilan tasvirlashlariga alohida ahamiyat berish kerak. Ikkinchidan, xarita tuzishda o‘quvchilarga geografiya fanidan xarita tuzishga qo‘yiladigan talablarni eslatish va zarurat tug‘ilganda ularni tushuntirish lozim. Tarix darsi mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning ijodkorlik ruhini rivojlantirishda sinfda bahs, munozara va, eng samaralisi, debatlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Debatlar o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash, turli masalalarni o‘rganish va o‘zlari haq ekanligiga boshqalarni ishontirishga o‘rgatadi. Bu holda o‘qituvchiga qo‘yiladigan talab asosan o‘tkaziladigan debatning mavzusi aniq, tasdiqlovchi tugallangan fikr shaklida bo‘lishini tashkil etish va ta’minlashdan iborat bo‘ladi. Misol tariqasida, tarix darslarida quyidagi mavzularda debat o‘tkazish mumkin:

1. Fransiya-Prussiya urushi yagona nemis davlatini tashkil topishi uchun shart edi.
2. Abdullaxon II ning markazlashtirish siyosati SHayboniylar davlatining inqiroziga sabab bo‘ldi.



3. Ingliz-rus raqobati Chor Rossiyasining O'rta Osiyon bosib olishiga asosiy sabab bo'ldi.
4. XVIII asrda islom dini. Dinni davlatdan ajratish shart edi.
5. Turkistonda paxtachilikning rivojlanishi qishloq xo'jaligini inqirozga olib keldi.
6. Buyuk geografik kashfiyotlar mustamlakachilik urushlarining asosiy sababi bo'ldi. Tarix darslarida debat o'tkazish uchun o'quvchilar va o'qituvchining o'zi ham maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishi hamda debatning mavzusi oldindan e'lon qilinishi shart. Albatta, o'quvchilarning tarixiy ong, tarixiy xotirasini shakllantirishda ularning ijodiy fikrlashi, mustaqil bilim egallash ko'nikmalarini rivojlantirish juda muhim. Shu o'rinda o'quvchilarning o'zlarida mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni turli vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishda darsda tashkil etilishi mumkin bo'lgan didaktik o'yinlar ham katta rol o'ynaydi. Kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlar, tabiat va tabiiy hodisalar o'rtasidagi aloqalarni tarixiy-badiiy ko'rinish va mazmunda yoritish asosida vujudga keltirilgan muammolarni hamkorlikda, bosqichma-bosqich hal etish jarayonida yangi bilimlarni egallashga qaratilgan didaktik o'yinlar yaxshi samara berishi mumkin. Zero, bunday o'yinlar asosan jamiyat hayotidan olinadi. O'quvchilarning ijodiy izlanishi, mustaqilligi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishda shubhasiz ijodiy o'yinlar yaxshi samara beradi. Tarix darslarida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar guruhining o'zaro hamkorlikda avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy izlanish va qo'llash orqali hal etishga qaratilgan didaktik o'yinlar tabiiy holda o'quvchining ijodiy ruhini uyg'otadi hamda rivojlantiradi. Chunki bunday didaktik o'yinli darslarda o'quvchilar hamkorlikda ishlab, o'z bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llab, yangi bilimlarga ega bo'ladi. Natijada o'quvchilarda o'z bilim va qobiliyatlariga ishonch hosil bo'ladi, har bir o'quvchi sidqidildan har qanday puxta tayyorgarlik muvaffaqiyat garovi ekanligini anglab, chinakam bilim olishga jiddiy kirishadi. O'qituvchilar e'tiboriga bir muhim omilni etkazishni joiz deb bildik. Bu ham bo'lsa, tarix darslarida o'rtaga tashlangan muammoni echish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga eng zarur fikrni aytmasligi. Aksincha, aynan shu fikrni shakllantiruvchi dalillar, faktlarni keltirib o'tishi kerak bo'ladi. Qolaversa, o'qituvchi muammoni qo'yganda o'quvchilarga uni echishga doir puxta

ko‘rsatmalar, yo‘llanmalar beradi va ish natijalarini baholash mezonlarini e’lon qilib o’tadi. Har bir darsda tarixiy bilimlarga oid o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan muammoning murakkablik darajasi o‘quvchilarning bilim saviyasini oshirishga yo‘naltirilgan holda belgilanadi. O‘qituvchi aniq bilishi lozimki, muammoni hal qilishda kerak bo‘ladigan ma’lumotlar o‘quvchilarga etarli darajada etkazilgan va ular tomonidan ma’lum darajada o‘zlashtirilgan bo‘ladi. Xulosa qilib aytish lozimki, tarix darslarida o‘quvchilarning faolligini oshirish masalasi yoshlarning tarixga bo‘lgan qiziqishi, jumladan, xalq tarixiga bo‘lgan muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish muammolari va ularning echimiga yo‘naltiriladi. Ammo bu faqat shu tor doiradagi vazifalar degani emas. Aynan tarix darslarida yoshlar faolligini oshirish masalasini nazarda tutib, o‘qituvchi shogirdlarining har qanday hayotiy voqeaga shaxsiy fikri, xulosasi hamda munosabatini ifodalashini shakllantirib rivojlantira boradi. YUqorida ta’kidlaganimizdek, ijodkorlik muhitini yaratishda barcha darslarda bo‘lgani kabi tarix darslarida ham muammoli vaziyatlar alohida ahamiyatga ega. Muammoli o‘qitish o‘qituvchidan mahorat talab qiladi va tabiiyki, o‘quvchini ham shunga undaydi. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish, bu muammoni hal qilish uchun o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, mustaqil fikr yuritishga jalb qilish o‘qituvchining o‘zidan ham ijodkorlikni talab etadi. Bunday jarayonda o‘quvchilar izlanishlar, o‘rganishlar natijasida manbalardan unumli foydalanish orqali mustaqil fikrlash va mustaqil tafakkur yuritishni o‘zlashtira oladilar. Tarix fani o‘qituvchisi hamisha bir qoidani yodda tutishi lozim. Bu qoidaning talqiniga ko‘ra, tarix fani, eng avvalo, har bir fuqaroni, ayniqsa, yoshlarimizni xalq o‘tmishining mazmuni va mohiyatini anglash, boy ma’naviy va madaniy merosimizni qadrlash, uni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, pirovard ular bilan yurak-yurakdan iftixon qilishga o‘rgatadi. O‘zimizning boy o‘tmish merosimizdan ruhiy madad va ibrat namunasini olishga keng va bepoyon imkon yaratadi. Odamlar qalbida ezgulik va yaxshilik tuyg‘ularini shakllantirib, bugungi avlod kimlarning avlodi ekanini oydinlashtirib, kimlarning zoti va vorislari ekanini anglashga yo‘naltiradi. Xulosa qilib aytish mumkinki:

1) bugun fanni o‘qitish metodikasida ta’limning turli usul va vositalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. O‘qituvchi tanlagan didaktik materialning mazmun va xarakteridan kelib chiqib, unga mos tarzda usul va vositalarni qo‘llab, ta’limiy faoliyatiga to‘g‘ri





joriy qilishni yo‘lga qo‘ysa, o‘quvchining faolligini oshirish masalasining echimi engilroq bo‘ladi;

2) dars ishlanmasini tayyorlash jarayonida o‘qituvchi albatta o‘quvchilarning bilish imkoniyatlarini inobatga olsa, ularning tarixiy bilimlarini shakllantirish nisbatan oson kechadi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. «Ijtimoiy-gumanitar fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda» nutqidan 20.01.2021 -yil
2. Borzova L. Igrы na uroke istorii. – M.: «Vlados-Press», 2003.
3. Yo‘ldoshev J., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy qilish. – T., 2008.
4. Toshpo‘latov T., G‘afforov YA. Tarix o‘qitish metodikasi. – T., »Universitet», 1999.
5. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o‘quv qo‘llanma). – T.: «Fan», 2006.